MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLIISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA INNOVATION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI



Nuriddin Ziyovuddin Zuxriddin o'g'li

“O‘zmilliybank” AJ Xizmat ko‘rsatish va sotuvni tashkil etish departamenti, yo‘nalish katta menejeri
O‘zRes Bank-Moliya akademiyasi Moliya pul muomalasi va kredit yo‘nalishi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: ZNuriddinov@nbu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tizimlashtirildi. Innovatsion xizmatlarning shakllanishi va ommalashuviga ta'sir qiluvchi omillar (regulyativ muhit, to'lov infratuzilmasi, banklarning ichki texnologik salohiyati, mijoz xulqi va ishonch omili) integratsiyalashgan yondashuv asosida yoritildi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlili hamda Markaziy bankning 2025-yil ma'lumotlariga tayangan deskriptiv tahlil orqali to'lov infratuzilmasining innovatsion xizmatlar uchun “tayanch baza” ekani asoslandi. Natijada innovatsion bank xizmatlarini baholash uchun yetuklik (maturity) matriksasi va “tezlik-xavfsizlik” muvozanatini ta'minlashga qaratilgan konseptual model taklif etildi.

Kalit so'zlar: innovatsion bank xizmatlari, tijorat banklari, raqamli transformatsiya, to'lov infratuzilmasi, open banking, API, kibexavfsizlik, fintech, mijoz tajribasi, yetuklik modeli.

Abstract. This article systematizes the theoretical and methodological foundations for developing innovative banking services in commercial banks. Using an integrated framework, it identifies the key drivers of innovation adoption and scaling, including the regulatory environment, payment infrastructure, banks' technological capabilities, customer behavior, and trust. The methodology combines content analysis of regulatory documents with descriptive analysis of the Central Bank's official 2025 data, supporting the proposition that payment infrastructure serves as the core platform enabling innovation. The paper's outputs include a maturity assessment matrix for innovative services and a conceptual model aimed at sustaining the “time-to-market–security” balance amid increasing digital and cyber risks.

Key words: innovative banking services, commercial banks, digital transformation, payment infrastructure, open banking, API, cybersecurity, fintech, customer experience, maturity model.

Аннотация. В статье систематизированы теоретико-методологические основы развития инновационных банковских услуг в коммерческих банках. На основе интегрированного подхода раскрыты ключевые детерминанты внедрения и масштабирования инноваций (регулятивная среда, платежная инфраструктура, технологический потенциал банков, поведение клиентов и фактор доверия). Методология исследования включает контент-анализ нормативно-правовых актов и дескриптивный анализ официальных данных Центрального банка за 2025-й год, позволяющий обосновать роль платежной инфраструктуры как базовой платформы для инновационных сервисов. В качестве результатов предложены матрица зрелости (maturity) инновационных услуг и концептуальная модель, ориентированная на баланс «скорость вывода на рынок–безопасность» в условиях роста цифровых рисков.

Ключевые слова: инновационные банковские услуги, коммерческие банки, цифровая трансформация, платежная инфраструктура, open banking, API, кибербезопасность, fintech, клиентский опыт, модель зрелости.



KIRISH

So'nggi yillarda global moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi tijorat banklari faoliyatida innovatsion bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirishni strategik zaruratga aylantirmoqda. Raqamli texnologiyalar, moliyaviy texnologiyalar (fintex), sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), masofaviy identifikatsiya va ochiq bank (Open Banking) konsepsiyalarining amaliyotga keng tatbiq etilishi bank xizmatlari ko'rsatish modellari, mijozlar bilan o'zaro munosabatlar va banklarning raqobat strategiyalarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonlar sharoitida innovatsion bank xizmatlari tijorat banklarining barqaror rivojlanishi, moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning raqamli rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston bank-moliya tizimida ham so'nggi 3–1 yil davomida raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish, masofaviy bank xizmatlari va raqamli to'lov infratuzilmasini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Tijorat banklari tomonidan mobil va internet-banking xizmatlari, raqamli kreditlash, onlayn depozitlar, QR-to'lovlar, masofaviy hisob raqamlar ochish hamda elektron identifikatsiya xizmatlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonida yagona nazariy yondashuv, kompleks metodologik asoslar va tizimli baholash mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu yo'nalishdagi samaradorlikni cheklab kelmoqda. Mazkur holat tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur ilmiy tadqiq etishni, mavjud ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirishni hamda milliy bank amaliyoti sharoitiga moslashgan metodologik modelni ishlab chiqishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Ayniqsa, innovatsion xizmatlarning iqtisodiy mohiyati, tasnifi, rivojlanish omillari, bank faoliyati samaradorligiga ta'siri hamda ularni joriy etish mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish zamonaviy bank tizimini takomillashtirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslash, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va ularni milliy bank tizimi sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: innovatsion bank xizmatlari tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlash; mazkur xizmatlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish; bank amaliyotida qo'llanilayotgan innovatsion xizmatlarni nazariy yondashuvlar asosida baholash; innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha metodologik yondashuvlarni asoslash. Tadqiqotning ob'ekti O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar, nazariy yondashuvlar va metodologik mexanizmlardan iborat. Mazkur ilmiy maqolaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda keltirilgan nazariy xulosalar va metodologik yondashuvlar tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda, banklarning raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirishda hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishda foydalanilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish masalasi zamonaviy bank nazariyasi va amaliyotida "raqamli transformatsiya", "fintex ekotizimi", "masofaviy bank xizmatlari", "mijoz tajribasi (customer experience)", "xavfsizlik va antifrod boshqaruvi" kabi yo'nalishlar bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilmoqda. So'nggi 2022-2025-yillarda chop etilgan xorijiy va mahalliy ilmiy ishlarda innovatsion bank xizmatlarining mohiyati, bank raqobatbardoshligiga ta'siri hamda ularni joriy etishning institutsional va texnologik shartlari turli metodologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Xorijiy adabiyotlarda innovatsion bank xizmatlari, avvalo, fintex texnologiyalarining bank biznes-modeliga ta'siri orqali talqin qilinadi. Masalan, bank faoliyatida fintex yechimlaridan foydalanish banklarning operatsion samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish tezligini kuchaytirish hamda risklarni boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish bilan izohlanadi. Fintex adopsionining bank natijalariga ta'sirini umumlashtiruvchi adabiyotlar sharhlarida banklar uchun fintex "raqobat bosimi" bilan bir qatorda "hamkorlik imkoniyati" ekanligi ta'kidlanadi; ya'ni banklar fintexni tashqi raqib sifatida emas, balki qiymat zanjirini kengaytiruvchi hamkor sifatida ko'rib chiqishi lozim. Bunday yondashuv fintexning bank samaradorligiga ta'sirini tizimli o'rganishga asos bo'ladi. Xususan, banklar va fintex o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tadqiq etuvchi bibliometrik tahlillar (2015-yildan 2024-yil iyuligacha bo'lgan ilmiy nashrlar kesimida) fintexning bank natijalariga ta'siri mavzusi ilmiy adabiyotda barqaror trendga aylanganini ko'rsatadi.



Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlar innovatsion bank xizmatlarini “masofaviy kanallar” (mobile/internet banking), “raqamli mahsulotlar” (onlayn depozit va kreditlash), “ma’lumotga asoslangan xizmatlar” (skoring, personalizatsiya) hamda “xavfsizlik innovatsiyalari” (biometrik identifikatsiya, antifrod tizimlari) kabi bloklar kesimida tahlil qilishni taklif etadi. Bu yondashuvda innovatsiya faqat yangi mahsulot emas, balki bankning xizmat ko’rsatish jarayonini qayta loyihalash (process innovation) va mijoz bilan aloqani yangi kanallar orqali tashkil etish (channel innovation) sifatida ham qaraladi. Xususan, ayrim global sharhlarda fintex adopsioniga ta’sir etuvchi omillar (me’yoriy muhit, iste’molchi ishonchi, texnologik infratuzilma, kadrlar salohiyati) sintez qilinib, bank innovatsiyalarini jadallashtirish uchun “institutsional moslashuvchanlik” muhim determinant ekani ko’rsatiladi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda esa innovatsion bank xizmatlari masalasi ko’proq O’zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiyasi, banklar raqobatbardoshligini oshirish va xizmatlar diversifikatsiyasi nuqtayi nazaridan yoritilmoqda. Jumladan, 2025-yilda chop etilgan tadqiqotda tijorat banklarida “innovatsion yondashuvlar va raqamli transformatsiya” bank xizmatlari turlarini kengaytirish, masofaviy xizmatlar ulushini oshirish hamda mijozlarga qulaylik yaratish orqali raqobatbardoshlikka xizmat qilishi qayd etilgan.¹ Shuningdek, tijorat banklarining innovatsion strategiyasini shakllantirishga doir mahalliy maqolalarda innovatsion rivojlanishning nazariy asoslari bilan birga, bank strategiyasida raqamli xizmatlar portfelini boshqarish, IT-infratuzilmani yangilash va xizmatlarni “mijoz ehtiyoji” asosida loyihalash kabi tamoyillar alohida urg’ulanadi.² Cyberleninka bazasida 2025-yilda chop etilgan ishda esa tijorat banklarida raqamli xizmatlarni joriy etish istiqbollari banklar uchun “yangi imkoniyatlar” yaratishi, mijozlar uchun qulayliklarni oshirishi va operatsion xarajatlarni optimallashtirish potentsialiga egaligi konseptual tarzda yoritilgan.³

Mavzuning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda me’yoriy-huquqiy baza ham muhim ilmiy manba sifatida maydonga chiqadi. O’zbekistonda raqamli transformatsiya va raqamli xizmatlarni kengaytirish bo’yicha davlat siyosati hujjatlari innovatsion bank xizmatlari rivoji uchun institutsional muhitni belgilaydi. Xususan, raqamli xizmatlar qamrovi va hududlarni raqamli transformatsiya qilishga doir qarorlar 2023-2024 yillarda raqamli xizmatlar ekotizimini kengaytirish bo’yicha ustuvor yo’nalishlarni ko’rsatadi. Raqamli transformatsiyaning strategik yo’nalishlari va texnologik trendlar (jumladan, biometrik identifikatsiya, Face-ID va shunga o’xshash yechimlar) bo’yicha normativ yondashuvlar ham innovatsion bank xizmatlarining xavfsizlik va identifikatsiya segmenti uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.⁴

Bank xizmatlari innovatsiyalarini amaliy joriy etishda “masofaviy bank xizmatlari” instituti alohida ahamiyatga ega. Markaziy bankning masofaviy bank xizmatlariga oid tushuntirish materiallarida internet-banking “hisobraqamlar va to’lovlarni real vaqt rejimida boshqarish” imkonini beruvchi xizmat sifatida tarflanadi.⁵ Bu tarif innovatsion bank xizmatlarining mohiyatini — ya’ni xizmatni yetkazib berish kanali, tezkorlik va foydalanuvchi tajribasi (UX) komponentlari orqali tushuntirishga metodologik asos beradi. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar kengaygani sari antifrod boshqaruvi va biometrik identifikatsiya bilan integratsiya masalalari ham dolzarb yo’nalishga aylanmoqda: 2024-yilda e’lon qilingan normativ hujjatlarda masofaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi tizimlarning antifrod hamda biometrik identifikatsiya tizimlari bilan bog’liq holda uzluksiz ishlashini nazorat qilish zarurati qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va baholash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo’llanildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy nazariya, bank ishi va raqamli iqtisodiyot sohasidagi zamonaviy konsepsiyalarga asoslanadi hamda miqdoriy va sifat tahlil usullarining uyg’unligida olib borildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil va umumlashtirish usullari orqali innovatsion bank xizmatlari tushunchasi, ularning iqtisodiy mazmuni va tasnifi xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida tizimlashtirildi. Taqqoshlama (komparativ) tahlil usuli yordamida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar va O’zbekiston bank amaliyoti o’rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. Empirik tahlil doirasida statistik tahlil usullaridan foydalanilib, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki (cbu.uz), Davlat statistika qo’mitasi (stat.uz), tijorat banklarining ochiq moliyaviy hisobotlari

1 <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/1223>

2 <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article>

3 <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklarida-raqamli-xizmatlarni-joriy-etish-istiqbollari>

4 <https://lex.uz/docs/7159258>

5 <https://cbu.uz/en/payment-systems/remote-banking-services>



hamda bank-moliya axborot portallari ma'lumotlari asosida so'nggi 3–1 yil ko'rsatkichlari o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va bank faoliyatiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida innovatsion bank xizmatlari bank faoliyatining tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqildi hamda ularning texnologik, institutsional va iqtisodiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi baholandi. Tadqiqot natijalarini asoslashda mantiqiy xulosalash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish va keyingi bo'limda keltiriladigan tahlil hamda natijalar uchun ishonchli asos yaratishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi 2-yilda O'zbekistonda innovatsion bank xizmatlarini (mobil banking, internet-banking, kontaktsiz to'lovlar, QR, raqamli identifikatsiya) jadal kengayishiga uchta asosiy omil turtki bo'ldi: (1) to'lov infratuzilmasining masshtablashuvi; (2) masofaviy kanallarda tranzaksiyalar hajmining o'sishi; (3) xavfsizlik va identifikatsiya bo'yicha regulyator talablari kuchayishi. Birinchidan, bank kartalari va terminal infratuzilmasi innovatsion xizmatlar uchun "bazaviy platforma" vazifasini bajarmoqda. Markaziy bank statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga muomaladagi bank kartalari soni 61 996 419 ta, o'rnatilgan to'lov terminallari 426 225 ta, bankomat va infokiosklar 29 909 tani tashkil etgan.

1-jadval. 2025-yil 1-yanvar holatiga muomaladagi bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar hamda 2024-yil yanvar-dekabr oylari davomida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar to'g'risida ma'lumot⁶

№	Tijorat banklari	Muomaladagi bank kartalari soni	O'rnatilgan to'lov terminallari soni	O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni	2024-yil yanvar-noyabr oylari davomida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar (mln. so'mda)
1	Milliy bank	3 918 891	40 121	841	20 181 328
2	O'zsanoatqurilishbanki	2 674 479	31 553	673	12 577 579
3	Agrobank	5 384 180	36 462	2 153	16 351 335
4	Mikrokreditbank	1 749 772	22 958	841	16 713 201
5	Xalq banki	12 420 738	45 663	3 075	9 768 789
6	Garant bank	412 784	6 859	272	1 129 647
7	Biznesni rivojlantirish banki	651 518	19 303	657	5 106 044
8	Turonbank	644 845	12 732	438	5 551 909
9	Hamkorbank	2 968 852	35 154	671	13 756 743
10	Asaka bank	1 581 837	14 675	241	12 609 787
11	Ipak Yo'li banki	3 041 139	22 534	948	11 094 989
12	Ziraat Bank Uzbekistan	86 171	1 196	8	1 175 324
13	Trastbank	938 000	14 592	398	13 895 839
14	Aloqabank	1 923 488	14 471	238	46 461 290
15	Ipoteka-bank	4 661 314	34 535	811	23 637 836

Shu ko'rsatkichlar 2025-yil 1-oktabr holatiga mos ravishda 63 639 505 ta, 430 178 ta va 38 118 taga yetgan. Bu, bir tomondan, naqd pulsiz to'lovlar qamrovi kengayayotganini, ikkinchi tomondan, banklar innovatsion xizmatlarni "tarqatish kanali" sifatida mavjud infratuzilmadan tobora samaraliroq foydalanayotganini anglatadi. Ikkinchidan, masofaviy xizmatlardan foydalanish bazasi keskin kengaymoqda. Markaziy bankning 2024-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotida masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 52,9 mingga yetgani, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshgani qayd etiladi. Shu bilan birga, Markaziy bankning "To'lov tizimining ko'rsatkichlari" jadvalida 2025-yil 1-iyun holatiga masofadan bank xizmatlari foydalanuvchilari jami 65 716 273 nafar ekani ko'rsatilgan.

6 <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/2135452/>



2-jadval. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2025-yil 1-iyun holatiga

№	Bank	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	Milliy bank	132 041	2 873 033	3 005 074
2	O'zbekiston sanoat-qurilish banki	91 733	5 345 375	5 437 108
3	Agrobank	221 945	3 211 056	3 433 001
4	Ipoteka-bank	180 741	4 036 227	4 216 968
5	Mikrokreditbank	74 318	1 830 240	1 904 558
6	Xalq banki	138 371	7 555 234	7 693 605
7	Garant bank	4 971	223 170	228 141
8	Biznesni rivojlantirish banki	54 487	714 313	768 800
9	Turonbank	50 110	821 618	871 728
10	Hamkorbank	151 509	2 369 133	2 520 642
11	Asaka bank	29 312	1 290 915	1 320 227
12	Ipak Yo'li banki	79 824	3 879 679	3 959 503
13	Ziraat bank Uzbekistan	5 856	57 308	63 164
14	Trastbank	62 544	758 536	821 080
15	Aloqabank	86 245	5 837 524	5 923 769
16	KDB Bank O'zbekiston	1 595	67 412	69 007

Amaliy tahlilda bunday tafovutlar odatda statistik qamrov farqi (mobil ilovalar/internet-banking bo'yicha ro'yxatdan o'tgan akkauntlar, dublikat hisoblar va h.k.) bilan izohlanadi; demak, natijalarni talqin qilishda "mijozlar soni" va "akkauntlar/foydalanuvchi yozuvlari soni" farqlanishi shart. Innovatsion bank xizmatlari endi faqat to'lov funksiyasi bilan cheklanmay, bank mahsulotlari qiymat zanjirining to'liq siklini (jalb qilish → identifikatsiya → hisobvaraqlar ochish → jamg'arma/konversiya → kreditlash → xizmat ko'rsatish) masofadan yopishga o'tmoqda.

Markaziy bankning 2024-yil bo'yicha yillik hisobotida 2024-yilda tijorat banklarining mobil ilovalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 396,7 trln so'm bo'lgani (2023-yilga nisbatan 1,6 barobar) keltiriladi. Hisobotda mobil kanallar orqali alohida mahsulot kesimida ham yirik hajmlar qayd etilgan: onlayn omonatlar – 77,8 trln so'm, onlayn konversiya – 36,3 trln so'm, onlayn mikroqarzarlar – 24,4 trln so'm, kreditlarni so'ndirish – 29,7 trln so'm. Ushbu faktlar nazariy jihatdan muhim xulosani beradi: innovatsion bank xizmati "alohida servis" emas, balki bankning raqamli biznes modeli (digital-first)ga o'tish indikatoridir. Ya'ni, banklar mijozning kundalik to'lov ehtiyojidan boshlab jamg'arma va kreditgacha bo'lgan ehtiyojlar zanjirini bitta ekotizimda yopishga intilmoqda. Bu jarayonda "data-driven" scoring, avtomatlashtirilgan underwriting, real vaqt monitoringi kabi texnologik modullar muhim o'rin egallaydi.

Innovatsiyalar diffuziyasi (tarqalishi)ni amaliy indikatorlar orqali baholaganda, 2023–2024-yillarda kontaktsiz to'lovlar va QR xizmatlarining o'sishi ayniqsa yuqori. QR-online tizimi: 2024-yilda tadbirkorlik subyektlariga taqdim qilingan QR-kodlar soni qariyb 108 ming donaga yetgani, QR orqali tranzaksiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib 441,8 mlrd so'm bo'lgani qayd etiladi. 2023-yil bo'yicha yillik hisobotda QR-kodlar soni 101 ming va tranzaksiya hajmi 337 mlrd so'm ekani keltirilgan. NFC tranzaksiyalari: 2024-yilda NFC asosidagi tranzaksiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,1 barobar oshib 41,4 trln so'mni tashkil etgan. 2023-yilda NFC tranzaksiyalari hajmi 37,7 trln so'm bo'lgani qayd etilgan. Tap-to-phone: 2025-yil 1-yanvar holatiga Tap-to-phone xizmatidan foydalanuvchi subyektlar soni qariyb 3,2 ming taga yetgani ko'rsatilgan. Natija sifatida, innovatsion xizmatlar rivojlanishining metodologik mezon sifatida "faqat foydalanuvchi soni" emas, balki kanallar bo'yicha tranzaksiya hajmi (value), tranzaksiya soni (volume) va mahsulot chuqurligi (deposit/FX/credit) birgalikda olinishi zarurligi asoslanadi.

Innovatsion bank xizmatlari masshtablashganda risklar ham tez masshtablanadi. Shu sababli 2024-yilda regulyatorning antifrod va biometrik identifikatsiya bo'yicha talablarini kuchaytirishi innovatsion xizmatlar "barqaror o'sishi"ning ajralmas sharti sifatida maydonga chiqdi.



Markaziy bankning 2024-yil yillik hisobotida 2025-yil 1-yanvar holatiga Face ID texnologiyasidan foydalanadigan tijorat banklari 28 taga yetgani, mobil ilovalar orqali raqamli identifikatsiyadan o'tgan mijozlar soni 2024-yil 1-yanvarga nisbatan 5,4 mlnga oshib, yil yakunida 12,2 mlnga yetgani qayd etiladi.⁷ Bu ko'rsatkichlar masofadan onboarding (mijozni bankka kelmasdan ulash) jarayoni real sektorga keng kirib borayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Lex.uzdagi 3513-sonli hujjatda masofaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi axborot tizimlarini (mobil ilova, internet banking va boshqalar) Markaziy bankning markazlashgan antifrod hamda biometrik identifikatsiya tizimlariga ulash, shubhali operatsiyalarni monitoring qilish va 24/7 rejimida qarshi choralar ko'rish kabi talablar aks etgan.⁸ Ushbu normativ yondashuv nazariy-metodologik jihatdan quyidagini anglatadi: innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish modeli endi faqat "texnologiya-mijoz" bog'lanishiga emas, balki "texnologiya-xavfsizlik-ishonch-regulyator talablari" konturiga tayanadi.

Yuqoridagi dalillar asosida quyidagi ilmiy natijalar shakllantirildi:

1. Innovatsion bank xizmatlari rivoji O'zbekistonda 2023–2025-yillarda infratuzilma (kartalar, terminallar, bankomatlar) kengayishi va masofaviy kanallarda tranzaksiyalar hajmi o'sishi bilan bir vaqtda kechmoqda.
2. Bank innovatsiyalarining "yetuklik darajasi"ni baholashda (metodologik yondashuv) uch o'lcham birgalikda olinishi zarur: qamrov (foydalanuvchilar/akkauntlar), faollik (tranzaksiya soni) va qiymat (tranzaksiya hajmi hamda mahsulot chuqurligi).
3. Kontaktsiz to'lovlar (NFC) va QR to'lovlar bo'yicha 2023–2024-yillarda o'sish dinamikasi innovatsiya diffuziyasining tezlashganini ko'rsatadi; bu esa bank xizmatlarini "naqd pulsiz ekotizim"ga moslashtirish bo'yicha strategik talabni kuchaytiradi.
4. Innovatsion xizmatlarni masshtablash sharoitida raqamli identifikatsiya va antifrod infratuzilmasi innovatsiyaning ajralmas institutsional sharti bo'lib, banklarning raqamli kanallarda ishonch va xavfsizlikni boshqarish qobiliyati asosiy raqobat omiliga aylanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish zamonaviy bank tizimining raqobatbardoshligi, barqarorligi va mijozlarga yo'naltirilganligini ta'minlovchi ustuvor omillardan biri hisoblanadi. 2023–2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashib, masofaviy bank xizmatlari, mobil va internet-banking, kontaktsiz va QR-to'lovlar, raqamli identifikatsiya hamda antifrod tizimlari bank xizmatlari ko'rsatishning asosiy shakliga aylanmoqda. Tadqiqot davomida innovatsion bank xizmatlari faqat alohida texnologik yangilik sifatida emas, balki banklarning biznes-modelini tubdan o'zgartiruvchi, operatsion samaradorlikni oshiruvchi, tranzaksiya xarajatlarini qisqartiruvchi va mijozlar tajribasini yaxshilovchi kompleks jarayon ekanligi ilmiy asoslandi. Shu bilan birga, innovatsion xizmatlarning ommaviylashuvi banklar oldiga axborot xavfsizligi, shaxsni ishonchli identifikatsiyalash, firibgarlikka qarshi kurashish hamda regulyator talablariga moslashish kabi muhim vazifalarni qo'ymoqda.

Tadqiqot natijalari innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish darajasini baholashda faqat foydalanuvchilar soni bilan cheklanib qolish yetarli emasligini, balki xizmatlar qamrovi, tranzaksiyalar faolligi, moliyaviy hajmi va mahsulotlar chuqurligini o'z ichiga olgan kompleks metodologik yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Shu asosda, tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishni yanada takomillashtirish uchun raqamli bank ekotizimi tamoyiliga asoslangan yagona konseptual modelni shakllantirish, innovatsion xizmatlar samaradorligini ko'p mezonli baholash tizimini joriy etish, raqamli identifikatsiya va antifrod infratuzilmasini yanada kuchaytirish, fintex kompaniyalari bilan institutsional hamkorlikni rivojlantirish hamda bank xodimlarining raqamli va analitik kompetensiyalarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga, moliyaviy xizmatlar sifati va qamrovini oshirishga hamda milliy iqtisodiyotning raqamli rivojlanish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD/Eurostat. Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. <https://www.oecd.org/en/publications>
2. Basel Committee on Banking Supervision. Report on open banking and application programming interfaces (APIs). (November 2019). <https://www.bis.org/bcbs/publ/d486.pdf>
3. BIS Innovation Hub. Work on open finance (open banking/open data topics). <https://www.bis.org/about/bisih/topics>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Mamlakat bank kartalari bozoriga oid tahlil e'lon qilindi" (25 Dekabr 2025).
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "2025-yil 1-sentabr holatiga bank kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar..." (Yangilangan: 22 Sentyabr 2025).

⁷ https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024_.pdf

⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-6933268>



6. Lex.uz. "To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash..." (3513-son, 21.05.2024). <https://lex.uz/docs/-6933268>
7. Lex.uz. "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi..." (1545-6-son, 31.01.2024). <https://lex.uz/en/docs/-6788580>
8. Lex.uz. O'RQ-578 "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" (01.11.2019; amaldagi tahrir). <https://www.lex.uz/ru/docs/-4575786>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
